



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL

IYUN/6-SON, III-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>





IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
III-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdulkarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

SUD BOSHQARUVCHILARI FAOLIYATINING IQTISODIY RAG‘BATLANTIRISH TIZIMI VA ULARNING SUBSIDIAR JAVOBGARLIGI: MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	12
Soliyev Damirjon Nurmatovich	
BLOKCHEYN TEXNOLOGIYASI ASOSIDA MOLIYAVIY TRANZAKSIYALARNI NAZORAT QILISH TIZIMI (SMART-KONTRAKTLAR, MARKAZLASHMAGAN MA‘LUMOTLAR BAZASI VA AUDIT IZLARI).....	18
Olimova Mukhlisa Vohidjon qizi	
SANOAT SEKTORIDA YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH: STRATEGIK AFZALLIKLAR VA TO‘SIQLAR TAHLILI.....	26
Xatamov Ochildi Qurbonovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ЕЁ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ.....	32
PhD. Юлдашева С.Ш	
TREND MODELLARI YORDAMIDA MEHNAT RESURSLARI SONINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH.....	38
Haydarova Dinora Atamurot qizi	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ВЫКУПА И ПРОДАЖИ КВОТ НА ОРОСИТЕЛЬНУЮ ВОДУ.....	43
Гоженко Борис Владимирович	
MOLIYAVIY LEVERIJ SAMARASI VA QARZ MABLAG‘LARINI BOSHQARISHDA UNDA FOYDALANISH.....	50
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
XIZMATLAR SOHASIDA WEBMONEY TO‘LOV TIZIMINI KOMPYUTERDA O‘RNATISH VA SOZLASHNING IQTISODIYOTDAGI ROLI.....	55
Fazilat Esirgapovna Jomonqulova	
Nizomov Murod	
Qurbonboyeva Rayhon Bahronjon qizi	
MECHANISMS FOR THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF A HEALTHY LIFESTYLE.....	58
Shukhrat Mashrabboevich Mamadaliyev	
BANK SEKTORIDA OPERATSION SAMARADORLIK VA XAVFLARNI BOSHQARISHNI BAHOLASH.....	62
R.I.Rashidov	
A.N. Elmurodov	
A.A. Muhiddinov	
TRANSFORMING ECONOMIC GOVERNANCE IN UZBEKISTAN THROUGH DIGITAL PUBLIC SECTOR TOOLS.....	68
Bokhodirov Boriykhon Boburovich	
Bahromjon Urmanov	
TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA VA KREDIT SALOHİYATINI BOSHQARISH.....	74
Ergashova Nilufar Sobirovna	
DEHQON XO‘JALIKLARIDA QO‘SHILGAN QIYMAT ZANJIRINING SHAKLLANISHI VA UNGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR.....	80
Azizov Shohsuvor Yuldashovich	



DEHQON XO'JALIKLARIDA QO'SHILGAN QIYMAT ZANJIRINING SHAKLLANISHI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Azizov Shohsuvor Yuldashevich
"Renessans ta'lim" universiteti dotsenti, PhD.
E mail: azizovshohsuvor1982@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada qo'shilgan qiymat zanjirining shakllanishi va rivojlanish xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash, saqlash, logistika va sotish bosqichlarida qo'shilgan qiymatni oshirish imkoniyatlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: dehqon xo'jaligi, qo'shilgan qiymat zanjiri, qishloq xo'jaligi, mahsulotni qayta ishlash, logistika, infratuzilma, raqobatbardoshlik, eksport salohiyati, innovatsiya, samaradorlik.

Аннотация

В данной научной статье анализируются характеристики формирования и развития цепочки создания добавленной стоимости. В исследовании рассматриваются возможности увеличения добавленной стоимости на этапах выращивания, переработки, хранения, логистики и сбыта сельскохозяйственной продукции.

Ключевые слова: сельское хозяйство, цепочка создания добавленной стоимости, переработка продукции, логистика, инфраструктура, конкурентоспособность, экспортный потенциал, инновации, эффективность.

Abstract

This research article analyzes the formation and development of value chains. The study examines opportunities for increasing added value at the stages of cultivation, processing, storage, logistics, and marketing of agricultural products.

Keywords: agriculture, value chain, product processing, logistics, infrastructure, competitiveness, export potential, innovation, efficiency.

KIRISH

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, respublikamizda qo'shilgan qiymat yaratish va uni ko'paytirish borasidagi mavjud vazifalarni bozordagi talab va taklif qonuniga mos shakllanayotgan narxlar doirasida hal etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonning ilmiy-uslubiy va amaliy yechimlarini ishlab chiqish hamda ularni hayotga samarali tatbiq etish uchun quyidagi yo'nalishlarga asosiy e'tibor qaratish lozim: a) biznes muhitini yanada takomillashtirish; b) ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda bozorda munosib o'rin egallash uchun raqobatbardosh tovar (xizmat)lar ishlab chiqarishni tashkil qilish va rag'batlantirish; v) xalqaro bozor segmentlarida ulgurji savdo, supermarket, chakana savdo kanallari hamda xaridorlar bilan samarali munosabatlarni boshqarish; g) iste'molchilarning yuqori sifatli, ekologik toza va organik mahsulotlarga bo'lgan talabini qondirishga qaratilgan mas'uliyatni kuchaytirish; d) barcha infratuzilma subyektlari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish orqali tovarlarning xaridorlar didi va talablariga to'liq javob beradigan, ularning ishonchini qozona oladigan jozibadorligini oshirish va h.k.

Ushbu holatlar eksport tovarlari bozorlaridagi talabni qondirish uchun mahsulot yetishtiruvchilar o'rtasida "narx, sifat va o'z muddatida yetkazib berish" nuqtayi nazaridan sog'lom raqobatning rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu esa ular faoliyatida qo'shilgan qiymat mohiyati va ahamiyatining yanada ortib borishiga olib keladi. Binobarin, istiqbolda yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi va turini kengaytirish ustuvor vazifalardan biri sifatida muvaffaqiyatli hal etilmog'i lozim.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqot natijalarini shuni ko'rsatadiki, bugungi kunga qadar iqtisodiyot fanida "qo'shilgan qiymat" kategoriyasini tavsiflash va uning massasini baholash bo'yicha yagona ilmiy-nazariy va metodologik yondashuvlar mavjud



emas. Qo'shilgan qiymat kategoriyasining dastlabki nazariy-uslubiy asoslari klassik iqtisodiyot namoyandalari asarlarida shakllantirilgan bo'lib, hozirgi kunda ikkita asosiy nazariya keng o'rganiladi.

Birinchi nazariya A. Smit va D. Rikardo tomonidan yaratilgan va asoslab berilgan qo'shilgan qiymatning klassik konsepsiyasi bo'lib, uning negizida bevosita mehnat bilan bog'liq jihatlar o'rin olgan. Ushbu konsepsiyaga asosan, qo'shilgan qiymat yollanma ishchilar mehnati natijasida yaratiladi va uning bir qismi ish haqi sifatida ishchilarga, qolgan qismi esa foyda sifatida kapital egasiga tegishli bo'ladi. Mulkdorning ushbu mablag'i keyingi takror ishlab chiqarishni tashkil qilish jarayonida ikki qismga: ishlab chiqarish vositalarini sotib olish va ishchilarning ish haqini to'lashga taqsimlanadi. Birinchi qism, ya'ni ishlab chiqarish vositalarini yetkazib beruvchi subyektlardagi avvalgi ishchilar tomonidan sarflangan jonli mehnatni o'zida mujassamlashtiradi. Shu bois, ishlab chiqarish vositalari qiymati, ya'ni buyumlashgan mehnat sarfi qo'shilgan qiymat yaratish manbasi bo'la olmaydi, chunki ushbu miqdor mahsulot ishlab chiqarish jarayonida o'zgarmaydi va buyumlashgan mehnat sarfi shaklida mahsulot (tovar) qiymatiga kiradi.

Ikkinchi nazariya J.B. Sey tomonidan yaratilgan bo'lib, uning asosida foydalilik chegarasi konsepsiyasi yotadi. Ingliz iqtisodchisi J.B. Klark ushbu nazariyani takomillashtirish maqsadida "Boylikning taqsimlanishi" nomli asarida "daromadlarning taqsimlanishi umumiy qonunlar bilan tartibga solinadi va ular qarshiliklarsiz amal qiladi" deb ta'kidlagan hamda ishlab chiqarish jarayonida foydalanilgan barcha omillarni yaratilgan boylikning yig'ilgan manbasi sifatida e'tirof etgan.

Qiymat qonuni va kategoriyasi doirasida olib borilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mahsulot (tovar) ishlab chiqarish va uni iste'molchilargacha yetkazish tizimida qo'shilgan qiymat yaratish zanjiri muammolariga nisbatan olimlar tomonidan turlicha qarashlar ilgari surilgan. Masalan, o'tgan asrning 90-yillari boshida M. Porter tomonidan qo'shilgan qiymat yaratish zanjiri korxonaning raqobat ustunligi imkoniyati sifatida e'tirof etilgan. XXI asr boshlarida (2000-yillar) ingliz iqtisodchi olimlari R. Kaplinskiy va M. Morrislar tomonidan chop etilgan "Qo'shilgan qiymat tadqiqotlari uchun qo'llanma"da "qo'shilgan qiymat yaratish zanjiri ishlab chiqarishning turli bosqichlarida tovar va xizmatlardan foydalanishdan tortib (fizik o'zgarishlar birikishi va turli subyektlar ulushini qo'shgan holda) to oxirgi iste'molchigacha yetkazib berish va uni hisobdan chiqarishdagi tadbirlarning to'liq spektridir" deb ifodalangan. Mazkur tushunchada qo'shilgan qiymat yaratish zanjiri tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish, ayirboshlash, taqsimlash hamda iste'mol qilishni qamrab oluvchi tizim sifatida o'rganilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada abstrakt-mantiqiy fikrlash, induksiya va deduktsiya usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Aniqroq aytganda, xomashyoni jahon bozorida talab katta bo'lgan tayyor mahsulotga aylantirish uchun qayta ishlashning 3-4 bosqichli tizimiga o'tish chora-tadbirlarini ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga samarali va tezkor tatbiq etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Bu tizimning asl mohiyati va mantiqiy o'zaro bog'liq tarkibiy ketma-ketligi quyidagicha: 3 bosqichli tizimning 1-bosqichida xomashyoni dastlabki qayta ishlab, yarim fabrikatlar tayyorlanadi; 2-bosqichida sanoat asosida ishlab chiqarish uchun tayyor materiallarga aylantiriladi; 3-yakuniy bosqichda esa iste'mol uchun tayyor mahsulot ishlab chiqarish nazarda tutiladi.

Ushbu jarayonlar eksport bozorlaridagi talabni qondirish uchun mahsulot yetishtiruvchilar o'rtasida "narx, sifat va o'z muddatida yetkazib berish" nuqtayi nazaridan sog'lom raqobatning rivojlanishiga olib keladi. O'z navbatida, turli korxonalar va tashkilotlar tomonidan resurs yetkazib berish va xizmat ko'rsatish ko'lamini kengaytirish agrosanoat majmuining talabini qondirishga ko'maklashadi. Bu esa agrosanoat majmuida faoliyat yuritayotgan xo'jalik subyektlarida mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarida qo'shilgan qiymat yaratishning ahamiyatini yanada oshiradi. Mazkur holatlar qo'shilgan qiymat yaratish zanjirini rivojlantirishga kompleks yondashish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Demak, bizning fikrimizcha, qo'shilgan qiymat zanjiri resurslarni jalb qilish bosqichidan tortib, toki mahsulot (xizmat) ishlab chiqarish va uning iste'mol qilinadigan qismini bozorga chiqarish bilan bog'liq jarayonlarni o'z ichiga oluvchi yaxlit tizimdir. U qo'shilgan qiymat yaratishga daxldor barcha subyektlar o'rtasidagi munosabatlarni aks ettiruvchi va muvofiqlashtiruvchi konsepsiya tamoyillariga asoslanadi. Bu yondashuv ishlab chiqarishni rivojlantirishga an'anaviy tarzda e'tibor qaratishdan farqli ravishda, qo'shilgan qiymat zanjiri yaratishning har bir bosqichi va ishtirokchisining o'rnini hamda muhimligini hisobga oladi. Qo'shilgan qiymat zanjiri tarkiban turli ishlab chiqaruvchi, xizmat ko'rsatuvchi va vositachi subyektlar ishtirokini qamrab oladi. Bunda zanjirning har bir bosqichida foydalanilgan resurslar, tovarlar hamda xizmatlarning o'zaro fizik transformatsion birikishi va harakati natijasida yangi mahsulot va qo'shilgan qiymat yaratiladi.




Xalqaro qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tashkiloti (FAO) tomonidan taklif etilgan "zanjir demarkatsiyasi" uslubi ta'minot zanjirini tahlil etishga bosqichma-bosqich yondashuvni nazarda tutadi va uning asosiy elementi zanjirli xaritalash hisoblanadi. Bunda barcha ishtirokchi subyektlar, ularning faoliyati, o'zaro aloqasi va ishlab chiqarish bosqichlari bo'yicha mahsulot hajmi, oqimi hamda sifati bilan bog'liq barcha turdagi ma'lumotlar aniqlanadi.

Odatda, ishlab chiqarish-ta'minot zanjiri jarayonini tahlil qilish dastlab asosiy qishloq xo'jaligi tovar mahsulotlarini ishlab chiqarish faoliyatidan boshlanib, so'ngra ularning quyi oqimi bo'yicha bir tomondan qayta ishlash va turli sotish kanallari orqali yakuniy bozorgacha bo'lgan jarayon, ikkinchi tomondan esa ishlab chiqarishda qo'llaniladigan vosita va xizmatlarning asosiy ta'minotchilari oqimi darajasi bo'yicha o'rganiladi. Qiymat yaratish zanjirining tahlili qanday usulda bajarilishidan qat'i nazar, asosan qo'shilgan qiymat yaratish va daromadlarni taqsimlash jarayonlarini baholashga yo'naltirilgan bo'ladi. Zotan, FAO tomonidan taklif etilgan qo'shilgan qiymat yaratish zanjiriga oid tahlil uslubiyoti o'zida, avvalambor, bozor narxlariga asoslangan moliyaviy va iqtisodiy tahlilni aks ettiradi.

Jumladan, moliyaviy tahlil usullari zanjirning turli segmentlari ishtirokchilarining manfaatlarini doirasida pul ko'rinishidagi qo'shilgan qiymatni aniqlash uchun qo'llaniladi. Agar zanjir ijobiy qo'shilgan qiymat yaratasa, bunda iqtisodiy faollik nominal boyluk yaratadi. Yakuniy natijada esa qo'shilgan qiymat zanjiri () barcha ishtirokchilari (subyektlari)da yaratilgan qo'shilgan qiymat yig'indisini () o'zida aks ettiradi va u quyidagi formula orqali ifodalanadi::

$$QQ_{yaj} = \sum QQ_{sub}$$

Dehqon xo'jaliklarida qo'shilgan qiymat yaratish imkoniyatlari juda ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, ushbu omillar qo'shilgan qiymat yaratilishi intensivligi va miqdorini aniqlab beradi. Bunday omillar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin (1-rasm):



1-rasm. Dehqon xo'jaliklarida qo'shilgan qiymat yaratish imkoniyatlariga ta'sir qiluvchi omillar¹

- dehqon xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi bilan bog'liq faoliyatiga tegishli yo'nalishlarda xizmatlar ko'rsatish infratuzilma ob'ektlarining hududiy kesimda mavjudligi;
- qishloq xo'jaligi tarmog'iga tegishli yo'nalishlarda xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq infratuzilma ob'ektlarining xizmatlari sifati va baholarining dehqon xo'jaliklari to'lov qobiliyatiga mosligi;

1 Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



- dehqon xo'jaliklariga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash, tashish bilan bog'liq faoliyatni yo'lga qo'yish imkonini beruvchi texnik vositalarni xarid qilish imkoniyati yaratilganligi;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash va sotish tizimini rivojlantirish, rag'batlantirish bilan bog'liq me'yoriy-huquqiy asoslarning mavjudligi;
- hududlarda dehqon xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, tashish, saqlash, qayta ishlash, qadoqlash va sotish bilan bog'liq bilimlarini oshirish, ushbu yo'nalishlarda maslahatlardan foydalanish imkoniyatlarining yaratilganligi darajasi kabi omillar ta'siri sezilarli hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Dehqon xo'jaliklarining qo'shilgan qiymat yaratish zanjiri subyektlari o'rtasidagi munosabatlarni va mavjud muammolarni samarali hal etishda kooperatsiya shakllari hamda aloqalar tizimini tashkil etish ustuvor ahamiyat kasb etadi va strategik yo'nalishlardan biri ekanligini alohida e'tirof etish lozim. Zero, ushbu tizim dehqon xo'jaliklarida kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni tashkil etish manbalarini yanada ko'paytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Рахматуллина З. С. Эволюция категории «добавленная стоимость» в экономической литературе: Вестник Челябинского государственного университета. 2011. № 31(246). Экономика. Вып. 33. С. 36–39.
2. Дж.Б.Кларк. Распределение богатства : пер.с англ. / Дж. Б. Кларк. М., 1992.
3. Porter, M. (1985): Competitive Advantage, London: Macmillan; Porter, M. E. (1990): The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press.
4. Kaplinsky, R. and Morris, M. (2002): A Handbook for Value Chain Research <http://www.ids.ac.uk/ids/global/pdfs/VchNov01.pdf>.
5. Азизов Ш.Ю. Деҳқон хўжаликларида қўшилган қийматни яратиш ва оширишнинг ташкилий-иқтисодий асосларини такомиллаштириш бўйича ёзилган диссертация.-2023-йил.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>